



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

Respublika  
Ta'lif Markazi

unicef  
har bir bola uchun

## UMUMIY O'RTA TA'LIMMING MILLIY O'QUV DASTURI

# O'ZBEK TILI



## FILOLOGIYA FANLARI TAVSIFI VA INTEGRATSIYASI

Filologiya fanlari ona tili, adabiyot, o'zbek tili (ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablar uchun), qardosh tillar (qozoq, qirg'iz, tojik, turkman, qoraqalpoq), rus tili (ta'lim rus va o'zbek tilida olib boriladigan maktablar uchun) o'quv predmetlarini qamrab oladi hamda ularning o'zaro aloqadorligini ta'minlaydi.

O'quvchilarga tilni o'qitish orqali shu til bo'yicha egallanadigan nutqiy faoliyatning asosiy to'rt turi: nutqni tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish amallari bo'yicha har bir sinfda taqozo etiladigan malaka va ko'nikmalar me'yorini rivojlantirish, bunda o'qishda, mehnat jarayonida va oilada, jamoat joylarida yuzaga keladigan turli nutqiy vaziyatlarda mustaqil ravishda fikr almasha olish va fikr bayon eta bilish, eshitilgan materialni idrok etish, shuningdek, yozma manbalarni o'qish orqali axborot olish, voqeahodisalarga o'z munosabatini bildirish tarzida muloqotga kirishish malakasini egallab borish dinamikasi nazarda tutiladi.

O'zbek tili O'zbekiston Respublikasining davlat tilidir. Shu sababli ham O'zbekiston Respublikasi hududida yashovchi aholi bu tilni puhta o'zlashtirishi dolzarb masalalardan biri. O'zbek tili darslarida amalga oshirish lozim bo'lgan asosiy masala ona tilisi o'zga bo'lgan o'quvchilarda o'zbek tiliga qiziqish va e'tibor hissini muntazam sur'atda o'stirib borishdan, o'zbek tilida so'zlashish, ularga tilning, urf-odatlarning, madaniyati va boy adabiy me'rosining ahamiyatini, turli mavzularda tutgan o'rnnini tushuntirishdan iborat. Fanlararo bog'lanishni tafakkurning rivojlanishiga qiyoslash mumkin. Fanlarni o'zaro bog'lab o'rganish u yoki bu fan bo'yicha o'rganilayotgan voqeа va hodisa haqida o'quvchida jonli mushohada qilish malakasini o'stiradi, bu bilan o'quvchi voqeа, hodisa haqida aniq tasavvurga ega bo'ladi. O'qituvchi o'zbek tili fanini boshqa fanlar, zamon bilan hamnafas uzviy bog'lagan holda ta'lim berar ekan, yangi materialni bayon qilish, mustahkamlash jarayonida, shuningdek, takrorlash, umumlashtirish vaqtida u yoki bu mavzu yuzasidan o'mi bilan bog'lanishli, o'quvchilarni mantiqiy, tahliliy mushohadaga chorlovchi turli mazmunga oid matnlardan foydalanadi. Bunday matnlardan foydalanish o'quvchilarni kreativ fikrlashga, matnni tushunishga, bilimi va dunyoqarashining boyishiga xizmat qiladi.

Milliy ma'naviyatni egallah o'zbek xalqining boy tarixi, milliy qadriyatlarini, urf-odatlari va ularni o'zida aks ettirgan boy adabiy-badiiy meros bilan yaqindan tanishish, uni o'qib o'rganish, milliy an'analar, bayramlar, urf-odatlar asosida shakllangan milliy madaniyat, shuningdek, umuminsoniy qadriyatlarni o'rgatishni taqozo etadi. O'zbek tili va o'zbek adabiyotining ixcham va go'zal namunalari, xalqning tarixiy, madaniy hayotiga xos muhim lavhalar, jahon milliy madaniyatiga hissa qo'shgan o'zbek xalqi vakillarining ijodiy merosini o'rganish ham ko'zda tutiladi. Bunda o'rganilayotgan so'z va so'z shakllarini to'g'ri talaffuz qilish hamda yozish, so'zni grammatik jihatdan to'g'ri shakllantirish, so'zlarni o'rinni tanlash va sintaktik-uslubiy jihatdan to'g'ri baholay olish, jumla tuzishda va nutq

ohangini belgilashda adabiy til imkoniyatlaridan o'rini foydalanish talab etiladi. Til o'rganishda uzuksiz ta'limning boshlang'ich va umumiy o'rta bosqichlarida til ta'limining lisoniy, lingvopsixologik, sotsiopsixologik va paralingvistik xususiyatlari va, muhimi, umumdidaktik va o'ziga xos metodik xususiyatlardan kelib chiqqan holda hosil qilinadigan nutqiy-kommunikativ, grammatik va umumtarbiyaviy vazifalar belgilanadi.

O'zbek tili fani faqat grammatik me'yorni o'rgatuvchi fan sifatida emas, balki o'quvchining ixtiyoriy mavzudagi, fanlar kesimidagi matnlarni tinglab tushunishiga, to'g'ri o'qishiga, orfoepik va orfografik me'yirlarni rivojlantirishga xizmat qiladigan fandir. O'quvchi mantiqiy, tanqidiy, kreativ fikrlashi uchun o'zbek tili darslarida tinglab, ko'rib va o'qib tushunishga e'tibor qaratiladi. O'zbek tilini puxta o'zlashtirgan o'quvchi o'zbek tilida o'z fikrini belgilangan darajalar asosida mustaqil bayon eta oladi. O'zbek tilini mukammal o'zlashtirgan o'quvchi o'zbek tilida beriladigan matnlarni o'qish orqali mantiqiy, tanqidiy, ijodiy (kreativ) fikrlash orqali olgan bilimlarini hayotda qo'llay olish layoqati rivojlantiriladi. Shuningdek, o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan xalqaro baholash dasturi (PISA, PIRLS) talablariga mos keladigan elementlar orqali amaliy topshiriqlarni matnlarning mazmuniga singdirish o'qituvchi oldidagi asosiy vazifalardan biri sanaladi. Bunda matnni tushunish, tanqidiy, tahliliy fikrlash, munosabat bildirish malakalarini shakllantirish ko'zda tutiladi.

**Ona tili** fani o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgalar fikrini anglashga, o'z fikrini og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy (kommunikativ) kompetensiyani rivojlantirish; o'quvchilarда grammatikaga oid o'zlashtiriladigan bilimlarni (fonetika, leksikologiya, so'zning tarkibi, so'z yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilar, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalarni) rivojlantirish hamda ona tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda to'g'ri va ravon bayon eta olishni rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat.

**O'zbek tili** fani umumiy o'rta ta'limning ta'lismi boshqa tillarda olib boriladigan maktablarida ikkinchi til sifatida o'qitiladi. Ushbu fan ta'limi mazmunida asosiy diqqat-e'tibor nutqiy va lingvistik kompetensiyani shakllantirishga qaratilgan bo'lib, bu o'quvchilarning o'zbek tilidan egallaydigan lingvistik bilimlari vositasida kundalik turmush, ijtimoiy-madaniy hayot, mutaxassislik sohalarida og'zaki va yozma erkin muloqot yurita olishlarini ta'minlashga qaratilgan. O'quvchilarning kundalik va kasbga oid sohalarda faoliyat olib borishi uchun o'zbek tili fani bo'yicha o'zlashtirgan bilimlarni muloqot jarayonida qo'llash malakasini rivojlantiruvchi nutqiy kompetensiyalar va o'zbek tilida og'zaki va yozma savodxonligini rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalar o'quvchilarning o'zlashtirgan bilimlari asosida o'zini o'zi mustaqil rivojlantirish, egallangan bilim, ko'nikma va malakasini turli vaziyatlarda qo'llay olishga qaratilgan tayanch kompetensiyalarni shakllantirishini ko'zda tutadi.

**Adabiyot** fani o'quvchilarni milliy hamda jahon adabiyotining nodir namunalarini mustaqil tushunish va tahlil qilishga o'rgatadi hamda shu orqali o'quvchilarni badiiy adabiyotga qiziqtirish, kitobxonlik madaniyatini va o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy dunyosi, adabiy-estetik didini shakllantirish, ularda mustaqil fikrlash, obrazli tafakkurga oid bilim, ko'nikma, malakalarni hosil qilish va rivojlantirish, olam va inson tabiatini, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar haqidagi tasavvurlarini, dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladi.

**O'qish** fani, umumiyligi o'rta ta'larning boshlang'ich sinflari o'quv rejasidagi adabiyot fani, og'zaki va bog'lanishli nutqini o'stirishga, lug'atini boyitishga, to'g'ri va ifodali o'qishga o'rgatish bilan birga ularda kitobxonlik va nutq madaniyatini hamda mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. O'qish fanini o'qitish orqali o'quvchilarda to'g'ri, tez, ongli, ifodali o'qish malakalarini shakllantirish; o'quvchilarda kitobga, o'qishga muhabbat uyg'otish, ularni oddiy kitobxondan chuqr mulohaza yurituvchi, ijodkor kitobxon darajasiga ko'tarish; o'qish orqali o'quvchilarning tevarak-atrof, borliq haqidagi bilimlarini kengaytirish, dunyoqarash elementlarini shakllantirish; o'quvchilarni axloqiy-estetik va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash; o'quvchilarning nutqi va tafakkurini o'stirish; elementar adabiy tushunchalarni shakllantirish; o'quvchilarning tafakkurini boyitish ko'zda tutiladi. O'qish darslari oldiga qo'yilgan tarbiyaviy vazifaning muvaffaqiyatli hal etilishi darsda badiiy asar matni ustida ishlash bilangina bog'liq bo'lib qolmay, balki bolalarni qurshab olgan hayot, tabiatdagi turfa o'zgarishlar, ekologik vaziyat, ijtimoiy foydali mehnat bilan ham o'zaro bog'liq bo'lishi lozim. O'quvchilarni o'qishga o'rgatishda hayot tajribalariga tayanib ish ko'riladi. O'qish darslarini bolalarda go'zallikka muhabbat uyg'otadigan, poklik tuyg'ulariga ozuqa beradigan, hissiyotni o'tkirlashtiradigan, aqlni charxlaydigan, tasavvurlarni boyitadigan, estetik didni o'stiradigan musiqa va tasviriy san'at fanlari bilan uzviy bog'langan bo'lishi kerak. O'qish, musiqa va tasviriy san'at darslarini o'zaro bog'lab uyushtirish bolalarda san'at asarlarini to'g'ri tushunish va qadrlash ko'nikmalarini o'stiradi, o'quvchilarning shaxs sifatida ma'naviy qiyofasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Filologiya fanlari blokidagi fanlar o'zaro ijtimoiy va aniq fanlar bilan uzviy bog'lab o'qitiladi. Agar o'quvchi matndan tashqari jadval, diagrammalardagi topshiriqlarni mantiqiy fikrlab, unga tanqidiy yoki kreativ yondashmasa, o'qish savodxonligida qusur borligidan dalolatdir.

**Matematika faniga** doir masala, misol, topshiriqlarni bajarish uchun, albatta, uni tushuna bilish zarur. Masalan, topshiriqlar gaplar vositasida ifodalananadi. Fanga oid matnlarni tinglab tushunish, mantiqiy fikrlash orqali matematik o'Ichov va hisob-kitoblar bilan bog'liq masalalarni yechish, laboratoriya va boshqa tajribalarni o'tkazish jarayonida eng maqbul yechim topa olish va to'g'ri qaror qabul qilish malakalari rivojlantiriladi.

**Fizika va astronomiya faniga** doir masala, formula, matnlarni o'qib tushunish ushbu fan tushuncha va hodisalarini – bu fan ramzları va amaliyotlarini to'g'ri yozish va o'qish orqali – qanchalik to'g'ri va ongli

uqqanligi yoki uqmaganligini ham ko'rsatib turadi. Fanga oid matnlarni o'qish jarayonida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyati, aqliy rivojlanishi va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish barobarida olamning yagona manzarasiga oid tafakkurlarini rivojlanish hamda egallagan bilimlardan kundalik hayot faoliyatlarida foydalanish ko'nikmasini shakllantirishni ko'zda tutadi.

**Kimyo faniga** oid matnlarni, terminlarni, atamalarni, topshiriqlarni bajarish uchun, albatta, uni tushuna bilish zarur. Fanga oid matnlarni to'g'ri o'qish va tinglab tushunish orqali o'quvchilar moddalar tarkibi, kimyoviy atamalarni farqlash, inson faoliyati va tabiatda ro'y berayotgan kimyoviy jarayonlar haqidagi tushunchalarni biladilar. kimyoviy birikmalarining farqlarini, tabiiy tizimlarning kimyoviy asosini, moddalarning tuzilishi va tarkibining o'zaro bog'liqligini o'rganishadi. Kimyoviy moddalardan, maishiy kimyo mahsulotlaridan ehtiyojkorlik bilan foydalanish va ular asosida eksperiment o'tkazish ko'nikmalari rivojlanadi.

**Biologiya faniga** oid matnlarni to'g'ri o'qish, tushunish orqali terminlarni, atamalarni, jonli tabiatning ob'yekti va tizimini bilish, jonli va jonsiz tabiat o'rtasidagi uyg'unlikni his etish, jonli muhit muammolarini hal qilish ko'nikmalariga ega bo'ladilar, o'quvchilarning ijtimoiylashuvi yaxshilanadi. Bir vaqtning o'zida atrofimizni o'rab turgan jonli tabiatga ijobiy munosabat, tabiiy rang-baranglikni saqlab qolish, shuningdek, javobgarlikni his qilgan holda mustahkam hayotiy faoliyat shakllanadi.

**Tabiiyot va geografiya faniga** oid matnlarni tinglab tushunish, o'qish orqali o'quvchilarda tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy ob'yekt, jarayon va hodisalar, Vatanimiz tabiiy sharoiti va boyliklari, aholisi va iqtisodiyoti, jamiyat va tabiatning o'zaro aloqadorligi, tabiatdan oqilona foydalanish va ishlab chiqarishni oqilona tashkil etishning global va hududiy muammolari haqida ilmiy-amaliy tushunchalarni o'rgatadi, mustaqil fikr-mulohaza yuritish, xaritalardan foydalana olish, geografik bilimlarni amalda qo'llash malakalari shakllanadi.

**Informatika va axborot texnologiyalari faniga** oid matnlarni tushunish, o'qish orqali axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va kompyuter texnikasidan foydalanish malakalari rivojlanadi.

**Tarix fani** orqali adabiy va tarixiy dalillarni bir-biriga qiyoslash, dalillar haqida fikr yuritish va to'g'ri xulosalar chiqarish bilimni puxta o'zlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Adabiyot va tarix fani o'zaro yaqin turadi. Adabiyot darslarida o'quvchilar ongida ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda ularning tarix fanidan olgan bilimlardan foydalanish bilan birga, hozirgi davrdagi ijtimoiy-siyosiy hodisalar ham o'rganiladi. Ilmiy dunyoqarashni shakllantiruvchi yorqin tarixiy shaxslar obraslari ham o'quvchilarning ma'nnaviy dunyosini boyitadi, jamiyatning moddiy boyligi va ma'nnaviy madaniyatini rivojlantirishga o'z hissalarini qo'shish tuyg'usini o'stiradi. Shu yo'l bilan o'quvchilarda ijtimoiy hayot voqealari hamda adabiyot va san'at asarlarini mustaqil anglash malakasi, izchil dunyoqarash shakllantiriladi.

**MAKTAB BITIRUVCHILARIDA FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA  
RIVOJLANTIRILADIGAN UMUMIY KOMPETENSIYALAR**  
**(umumi o‘rta ta’lim bitiruvchilariga qo‘yiladigan talablar)**

**NUTQIY KOMPETENSIYA**

maqsad va kontekstdan kelib chiqqan holda o‘z fikrini yetkazish uchun og‘zaki muloqotga kirishadi;

maqsad va kontestdan kelib chiqqan holda o‘z fikrini yetkazish uchun yozma matn yaratadi;

turli uslubdagи matnlarni ifodali o‘qiydi; mazmunini anglaydi va qayta tushuntirib beradi;

notanish matnni ovoz chiqarib, belgilangan tezlikda o‘qiydi;

audiomatnni tinglab, videotasvir va rasmlarni ko‘rib tushunadi, o‘z munosabatini og‘zaki hamda yozma shakllarda ifodalab beradi;

asar va ijodkor shaxsi haqida o‘zining mustaqil fikrini adabiy talaffuz va imlo me’yorlariga rioxha qilgan holda bayon qiladi;

matnning umumiy mavzusini belgilaydi, matnga sarlavha qo‘yadi;

matnning ma’lum qismini o‘qib, uni mantiqan davom ettiradi;

matnni mazmuniy qismlarga ajratadi va reja tuzadi;

turli janrdagi matnlar mazmunini tushunadi, ulardan namunalarni yoddan aytib beradi, asar sujetini hayot bilan taqqoslaydi;

turli janrdagi adabiyotlarni mutolaa qilib, undagi g‘oya va obrazlarga og‘zaki hamda yozma shakllarda munosabat bildiradi;

asar mutolaasidan zavqlana olish darajasida tilning ifoda imkoniyatlarini anglay oladi va his-tuyg‘ularini bayon qiladi;

ommaviy axborot vositalaridagi dolzarb mavzularga doir xabar va ma’lumotlarni tushunadi, o‘z munosabatini bildiradi;

**LINGVISTIK KOMPETENSIYA**

o‘z fikrini yozma shaklda bayon qilishda adabiy tilning imlo, grammatik va uslubiy me’yorlariga rioxha qiladi;

xalq maqollari, hikmatli so‘zlar ma’nosini tushungan holda o‘z nutqida qo‘llaydi, matn tuzishda yordamchi so‘zlardan o‘rinli foydalanadi;

nasriy asarlardagi so‘zlarning o‘z va ko‘chma ma’nolarini farqlaydi;

o‘z yozma nutqida kiritmalardan, tinish belgilaridan o‘rinli va to‘g‘ri foydalanadi, matndagi ko‘chirma gaplarni o‘zlashtirma gap shaklida yozadi;

til imkoniyatlaridan foydalanib sodda gaplarni qo‘shma gapga aylantiradi;

o‘qilgan asar bo‘yicha obrazlarga mantiqiy fikrlab tavsif beradi;

ish qog‘ozlari (ariza, ma’lumotnoma, xat, e’lon, axborot, tavsifnoma, tushuntirish xati, jadval shaklida o‘z rezumesi) ni yozadi;

adabiy til me’yorlariga rioxha qilgan holda turli mavzularda taassurot, referat, esse va ijodiy matn (bayon, 2-2,5 sahifa) yozadi;

sodda matnlar mazmunini tushungan holda tarjima qiladi.

## **FILOLOGIYA FANLARI ORQALI O'QUVCHILARDA TAYANCH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA TAVSIYALAR**

Umumiy o'rta ta'lif tizimida o'quvchilarda fanga oid kompetensiyalar bilan birgalikda tayanch kompetensiyalar shakllantirilishi belgilab berilgan. Filologiya fanlari bloki yo'nalishidagi fanlar orqali o'quvchilarning o'zlashtirgan bilimlari asosida o'zini o'zi mustaqil rivojlantirish, egallagan bilim, ko'nikma va malakasini turli vaziyatlarda qo'llay olishga qaratilgan tayanch kompetensiyalarini shakllantirishdan iborat.

Jumladan, kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishda davlat tili, xorijiy tillarni o'zlashtirishda mustaqil, ijodiy fikrlash, yozma va og'zaki ravon bayon etish malakalarini shakllantirishda ona tili bo'yicha o'zlashtirgan bilimlarini muloqot jarayonida qo'llash malakasini rivojlantirish lozim.

Fanlarni o'qitishda axborot bilan ishlash kompetensiyasini samarali rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytiruvchi zamонавиъ axborot-telekommunikatsiya vositalaridan muntazam foydalanish zarur. Bunda o'quvchilarni fanga oid axborotlarni turli manbalardan izlash, tahlil qilish va axborot xavfsizligiga rioya qilgan holda axborot vositalari bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishda mobil qurilma (telefon, planshet va boshqa gadjetlar) lardan foydalanish tavsiya etiladi.

O'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasini shakllantirishda umuminsoniy fazilatlariga ega bo'lish, Vatanni sevish, huquqiy, iqtisodiy bilimlarga ega bo'lish, yangiliklarga intilish va o'zlashtirgan nazariy bilimlari asosida mustaqil qaror qabul qilishga, jamiyatda ro'y berayotgan progressiv va innovatsion o'zgarishlardan xabardor bo'lish hamda ulardan kundalik hayotda foydalana olishga o'rgatish zarur.

Ijtimoiy-emotsional va fuqarolik kompetensiyasini shakllantirish fuqarolik burchi, ijtimoiy, siyosiy rivojlanish, favqulodda vaziyatlar, ekologik muammolar haqida bilimlarga ega bo'lish, badiiy asar va san'at asarlarini tushunish hamda ularni asrashda tashkilotchilik xislatlarini rivojlantirishdan iborat.

## 6 SINF (A2.2)

### NUTQIY KOMPETENSIYALAR

Anglsh (passiv nutq ko'nikmalari)	
O'qib tushunish	
A2.2-O'T1	o'z darajasiga mos matnni (voqeaband yoki faktologik matnlar) o'qiganda uning asosiy g'oyasini tushunadi
A2.2-O'T2	o'z darajasiga mos matnni (voqeaband yoki faktologik matnlar) o'qiganda undagi detallarni tushunadi ( <i>kim? nima? qachon? qayerda? nima uchun?</i> singari so'roqlarga javob topa oladi)
A2.2-O'T3	o'z darajasiga mos matnni (voqeaband yoki faktologik matnlar) o'qiganda undagi voqea-hodisalar ketma-ketligini tushunadi
A2.2-O'T4	o'z darajasiga mos matnni (voqeaband yoki faktologik matnlar) o'qiganda undagi shaxslar, hayvonlar, predmetlar, bino va inshootlar tasvirini tushunadi
A2.2-O'T5	o'z darajasiga mos matnni (voqeaband yoki faktologik matnlar) o'qiganda unda ayrim ochiq aytilmagan fikrlarni ilg'ay oladi
A2.2-O'T6	reklama e'lolarini o'qiganda tushunadi
A2.2-O'T7	o'z darajasiga mos faktologik matnlarda biron narsaning qanday tuzilganligini (qismlari, qismlarining vazifalari) tushunadi
Tinglab tushunish	
A2.2-TT1	o'z darajasiga mos matnni (voqeaband yoki faktologik matnlar, kundalik vaziyatlar aks etgan dialoglar) eshitganda uning asosiy g'oyasini tushunadi
A2.2-TT2	o'z darajasiga mos matnni (voqeaband yoki faktologik matnlar, kundalik vaziyatlar aks etgan dialoglar) eshitganda undagi detallarni tushunadi ( <i>kim? nima? qachon? qayerda? nima uchun?</i> singari so'roqlarga javob topa oladi)
A2.2-TT3	o'z darajasiga mos matnni (voqeaband yoki faktologik matnlar, kundalik vaziyatlar aks etgan dialoglar) eshitganda undagi voqea-hodisalar ketma-ketligini tushunadi
A2.2-TT4	o'z darajasiga mos matnni (voqeaband yoki faktologik matnlar, kundalik vaziyatlar aks etgan dialoglar) eshitganda undagi shaxslar, hayvonlar, predmetlar, bino va inshootlar tasvirini tushunadi
A2.2-TT5	o'z darajasiga mos matnni (voqeaband yoki faktologik matnlar, kundalik vaziyatlar aks etgan dialoglar) o'qiganda unda ayrim ochiq aytilmagan fikrlarni ilg'ay oladi
A2.2-TT6	reklama e'lolarini eshitganda tushunadi
A2.2-TT7	o'rganilgan vaziyatlar doirasida o'zgalarning o'ziga qaratilgan nutqini tushunadi

Faol nutq ko'nikmalari	
Yozish	
A2.2-Y1	norasmiy vaziyatlarda xat (e-mail) yoza oladi va xatlarga javob qaytara oladi
A2.2-Y2	qisqa hikoya va ertaklar yoza oladi
A2.2-Y3	qisqa faktologik matn yoza oladi
A2.2-Y4	joy, bino, inshoot, qurilmalar tasvirini yoza oladi
A2.2-Y5	qisqa reklama matnlari yoza oladi
Gapirish	
A2.2-G1	o'tgan zamonda takrorlangan, odatiy bo'lgan ish-harakatlar haqida gapira oladi ( <i>yakshanba kunlari buvimnikiga borardik singari</i> )
A2.2-G2	o'tgan zamonda takrorlangan, odatiy bo'lgan ish-harakatlarni hozirgi zamondagi vaziyat bilan solishtira oladi
A2.2-G3	borgan joylarini tasvirlay oladi
A2.2-G4	guvohi bo'lgan voqealarni tasvirlay oladi
A2.2-G5	bino, inshoot, qurilmalarni tasvirlay oladi
A2.2-G6	biron narsaning (bino, inshootning) qanday, nimadan qilinishini (qilinganini) tasvirlay oladi ( <i>bu ko'priq toshlardan qurilgan, kitob daraxtdan qilingan singari</i> )
A2.2-G7	maqsadni ifodalay oladi
A2.2-G8	zaruratni (turli zamonlarda) ifodalay oladi
A2.2-G9	ko'rgan joylari, guvohi bo'lgan voqealariga nisbatan munosabat bildira oladi ( <i>Bu juda chiroyli joy singari</i> )

## LINGVISTIK KOMPETENSIYALAR

Grammatika	
A2.2-GR1	hozirgi zamon fe'llarini (hozirgi zamon davom fe'li, hozirgi-kelasi zamon) ishlata oladi
A2.2-GR2	o'tgan zamon fe'llarini (yaqin o'tgan zamon, uzoq o'tgan zamon, o'tgan zamon davom fe'li) ishlata oladi
A2.2-GR3	kelasi zamon fe'llarini (kelasi zamon maqsad fe'li, hozirgi-kelasi zamon) ishlata oladi
A2.2-GR4	o'tgan zamon sifatdoshini ishlata oladi ( <i>borgan, kelgan, o'qigan</i> va h.z.)
A2.2-GR5	birgalik nisbatini ishlata oladi ( <i>borishgan, kelishgan, o'qishgan</i> va h.z.)

A2.2-GR6	majhul nisbatni ishlata oladi (quriladi,
A2.2-GR7	harakat nomini ishlata oladi ( <i>tomosha qilish uchun, o'qish uchun va h.z.</i> )
A2.2-GR8	o'zlashtirma gaplarni ishlata oladi
A2.2-GR9	sifat va ravishlarning qiyosiy ( <i>uzunroq, balandroq singari</i> ) va orttirma darajalarini ( <i>eng uzun, eng baland singari</i> ) ishlata oladi
A2.1-GR10	daraja ravishlarini ( <i>juda singari</i> ) ishlata oladi
A2.2-GR11	"kerak", "zarur" modal so'zlarini ishlata oladi (kerak / zarur, kerak / zarur edi, kerak / zarur bo'ladi)
A2.2-GR12	payt ergash gaplarni ishlata oladi
A2.2-GR13	shart ergash gaplarni ishlata oladi
A2.2-GR14	kirish birikmalarini ( <i>xo'sh, yaxshi, yo'g'-e singari</i> ) ishlata oladi
<b>Leksika</b>	
A2.2-L1	sayohatlar bilan bog'liq fe'llar va otlarni ishlata oladi
A2.2-L2	transport bilan bog'liq fe'llar va otlarni ishlata oladi
A2.2-L3	bino, inshootlar bilan bog'liq fe'llar va otlarni ishlata oladi
A2.2-L4	texnik qurilmalar bilan bog'liq otlarni ishlata oladi
A2.2-L5	predmetlar, joylar bilan bog 'liq sifatlarni ishlata oladi

## TUSHUNTIRISH XATI

### **O'ZBEK TILI FANINING MAQSAD VA VAZIFALARI**

O'zbek tili O'zbekiston Respublikasining davlat tilidir. Shu sababli ham O'zbekiston Respublikasi hududida yashovchi aholi bu tilni puxta o'zlashtirishi dolzARB masalalardan biri. O'zbek tili darslarida amalga oshirish lozim bo'lgan asosiy maqsad ona tilisi o'zga bo'lgan o'quvchilarda o'zbek tiliga qiziqish va e'tibor hissini muntazam sur'atda o'stirib borishdan, o'zbek tilida so'zlashish, ularga tilning, urf-odatlarning, madaniyati va boy adabiy me'rosining ahamiyatini, turli mavzularda tutgan o'rnnini tushuntirishdan iborat.

Ta'lrim o'zga tilda olib boriladigan maktablarda o'zbek tili fanini o'qitishda bosh maqsadga erishish uchun quyidagi **vazifalar** bajarilishi ko'zda tutiladi:

- 21-asrning tez, o'zgaruvchan va doimiy yangilanib boradigan axborot va texnika manbaini inobatga olgan holda o'zbek tilining o'qitish tizimini moslashuvchanligini, yangilanib borishini ta'minlash hamda fan va texnikaning so'nggi yutuqlarini o'zida aks ettirishi;

- ta'lrim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish orqali innovatsion infratuzilmani shakllantirish;

- ta’limning barcha bosqichlarida o’zbek tilini o’qitilishining uzviyigini va yondosh fanlararo bog’liqlikni ta’minlash;
- fan mavzularining mazmunan yaxlitligini, mantiqiy ketma-ketlik va izchilligini, o’quvchi yoshi va psixofiziologik xususiyatlariga mos holda faktlar, tushunchalar va qoidalarni tushunarli bayon qilinishi;
- o’zbek tili fanining mazmuni va o’ziga xos xususiyatlarini, malaka talablari va shakllantiriladigan kompetensiyalardan kelib chiqqan holda baholash tizimini ishlab chiqish, hamda baholashning barcha bosqichlarida o’quvchining Davlat ta’lim standarti asosida olgan bilim, ko’nikma va malakasiga mos talab belgilash;
- o’quvchilarda real hayotdagи voqeа-hodisalarga munosabat bildirish hamda kreativ va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish orqali ularni o’z fikrlarini o’zbek tilida erkin bayon eta olishlarini, o’rganilayotgan tilda taqdim etilgan ma’lumotni anglay olish ko’nikmalarini shakllantiruvchi pedagogik texnologiyalardan foydalanish;
- kelajagimiz bo’lgan yosh avlodni dunyoning rivojlangan mamlakat fuqarolari bilan raqobatlasha oladigan komil inson sifatida tarbiyalash tizimining bir bo’lagiga aylantirish.
- o’quvchilarni o’zbek tilini o’qitish jarayoniga chuqurroq olib kirish va tilga mehr uyg’otish orqali Davlat tiliga bo’lgan xurmatni tarbiyalash.

Ta’lim o’zga tilda olib boriladigan maktablarda o’zbek tili fanini o’qitishning maqsad va vazifalari qandayligi “O’zbek tili” o’quv fanining **mazmunini** belgilaydi. O’zbek tili ta’lim mazmuni o’quv rejasi, dasturi, darsliklar, o’quv qo’llanmalari hamda boshqa turli yordamchi didaktik vositalardan iborat bo’ladi.

Jahon miqyosida shiddat bilan borayotgan globallashuv jarayoni barcha jamiyatlarda ham ta’lim tizimini takomillashtirib, kompetentli kadrlar tayyolashni taqozo etmoqda. Shu bois O’zbekiston Respublikasida ham ta’lim tizimi jiddiy islohotlar bosqichiga kirdi. Milliy o’qitish tizimidagi tub yangilanishlar mavjud ta’lim mazmunining ham o’zgarishini talab qilmoqda. Umumiyl o’rtalimning eng muhim va nozik yo’nalishi bo’lmish o’zbek tili o’qitish samaradorligini ta’minlash uchun zarur bo’lgan o’quv ashyolarini yangilash hayotiy ehtiyojga aylandi.

Ushbu o’quv dasturi “O’zbek tili o’quv fani konsepsiysi” va “O’zbek tili ta’lim davlat standarti” singari rasmiy pedagogik hujjalarga tayanib, O’zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan tayanch o’quv rejasi asosida yaratildi.

### **“O’ZBEK TILI” DASTURI MAZMUNI VA TUZILISHI**

Jamiyat pedagogika ilmi va amaliyoti oldiga umumiy o’rtalimni dunyo andazalari darajasiga ko’tarish talabini qo’ymoqda. Ushbu “O’zbek tili” dasturi keyingi talablar asosida qayta ishlab chiqildi. Bunda umumiy o’rtalim maktab o’zbek tili ta’limi 2-4-sinflar darajasida **boshlang’ich**, 5-9-sinflar qamrovida **tayanch** hamda 10-11-sinflardan iborat **o’rta** singari uch bosqichdan iborat ekani ko’zda tutildi.

Ta'limga o'zga tilda olib boriladigan maktablarda o'zbek tili 2-4-sinflar darajasida ***boshlang'ich***, 5-9-sinflar qamrovida ***tayanch*** hamda 10-11-sinflardan iborat ***o'rta*** shaklida tashkil etilishi mo'ljallandi. Bunga ko'ra, o'quv dasturlarida o'quvchilarga o'rgatiladigan grammatik va badiiy matnlar xronologik yoki janriy belgilariiga qarab emas, balki umumlashtiruvchi ***ruknlar*** bo'yicha joylashtirildi. Har bir sinfda to'rttadan rukn va ushbu ruknlar mavzusiga mos turli davrlarda, turli mualliflar tomonidan yaratilgan, o'quvchilarni yoshi va fiziologik hususiyatlari inobatga olinga grammatik, nutqiy va badiiy mavzular tavsiya qilindi.

Ta'limga o'zga tilda olib boriladigan maktablarda o'zbek tili **2-4-sinflar** boshlang'ich darajada yillik 68 soatni tashkil etib, bunda o'quvchi yoshiga mos mavzular rasmlar, turli usullar yordamida grammatik mavzular, mavzu asosida matnlar va badiiy o'qish uchun bir qancha maqol, tez aytish, topishmoq va she'rlar taqdim etiladi. 2-sinf darsigi bilan o'quvchining ish daftari taqdim etiladi.

Ta'limga o'zga tilda olib boriladigan maktablarda o'zbek tili **5-11-sinflar** qamrovida yillik 102 soatni tashkil etib, bunda grammatik mavzular, mavzu asosida matnlar va badiiy o'qish uchun o'quvchi yoshiga mos mavzularda taqdim etiladi.

Umumta'limga o'rta maktablarining **10-11-sinflarida** o'zbek tili ta'limga tizimi o'zga til o'quvchilarni mustaqil fikrini o'zbek tilida bayon qilishga qaratilgan mavzu va vazifalar, o'zbek adabiy merosini chuqurroq o'rganishga yonaltirilgan mavzularni berish ko'zda tutildi. Bu bosqichda ham o'quvchilarda ayrim badiiy asarlardan parchalarni tahlili orqali o'zbek madaniyatini o'rgatish va vatanparvarlik ruhini shakllantirish asosiy pedagogik maqsad bo'ladi.

Har bir sinfda grammatik, badiiy va didaktik materiallar ifoda yo'shini, uslubiy yaqinligi, mavzusi, til xususiyatlari, janr rang-barangligi hisobga olingan holda joylashtirilgan. Materiallarni joylashtirishda soddadan murakkabga tomon borish va grammatik, badiiy janrlarning xilma-xilligini saqlash tamoyiliga, imkonli boricha, amal qilingan. Shuningdek, o'quvchilarda o'zbek tilini o'rganish ko'lami haqida umumiylashtirish asosiy metod asosiy vosita bo'lib ishtiroydi.

## O'ZBEK TILINI O'QITISH METODOLOGIYASI

Dasturda O'qitish-o'qish metodlari. O'qitish-o'qishning metodi va usuli didaktikada quyidagicha tasniflanadi. Metod so'zi grek tilida tadqiqot, usul, maqsadga erishish uchun yo'l ma'nosini bildiradi. "Metodga umumiylashtirish - faoliyatning ma'lum darajada yo'lga qo'yilgan ko'rinishdagi, maqsadga erishish usuli"- deb, ta'rif berilgan. Ma'lum bir yo'nalishdagi o'quv-tarbiyaviy maqsadlarga erishish yo'lida, o'qituvchi va o'quvchilar orasida kechadigan faol hamkorlik jarayonida metod asosiy vosita bo'lib ishtiroydi.

Har bir o'quv metodi o'quvchilarning bilish faoliyatlarini faollashtiradi.

Bundan quyidagicha xulosa qilish mumkinki, o'quv metodi deganda:

- o'qituvchining ta'lif berish usullari;
- o'quvchilarni ma'lum bir yo'nalishdagi materiallarni egallashlari;
- turli didaktik vazifalarni yechishlari;
- o'quv-bilish faoliyatiga tanlangan vazifalarning yig'indisi tushu-niladi.

O'qitish metodlarini tanlash ixtiyoriy bo'la olmaydi. Mutaxassis bo'Imagan kishiga o'qituvchi o'ziga yoqqan metodni tanlagandek ko'rinishi mumkin. Aslida esa, o'qituvchi maqsadga erishish yo'lini tanlashda juda ham ko'p o'ylanadi. Ob'ektiv va sub'ektiv sabablar mavjud imkoniyatlar, tasodiflar tanlov diapazonini toraytiradi va pedagog ixtiyoroda samarali ishslashning sanoqli usullarini qoldiradi. O'qitishning u yoki bu metodini tanlashda, o'qituvchi har safar ko'pgina bog'liqliklarni hisobga olishi darkor. Eng avvalo, dars jarayonida o'z yechimini topishi zarur bo'ladigan bosh maqsad va konkret vazifalar aniqlanib olinadi. Shularga asosan umumiyligi jihatdan ko'zlangan vazifaga erishish yo'lida to'g'ri keladigan bir guruh metodlar ko'rib chiqiladi. Keyin esa o'qish jarayonini yuqori darajada amalga oshirish imkoniyatini beradigan, maqsadga yo'naltirilgan optimal yo'llar tanlanib olinadi.

O'qitish metodlarini tanlashda o'z ta'sirini ko'rsatadigan ko'pgina sabablar psixologik-pedagogik adabiyotlarda ko'rsatilib o'tilgan.

O'qitish metodlarini tanlash bo'yicha quydag'i umumiyligi shartlarni ko'rsatib o'tish mumkin:

1. Ko'zda tutilgan maqsadlardan kelib chiqadigan o'qitish tamoyillari;
2. Aniq bir fanning mazmuni yoki darsning mavzusi;
3. O'qitishning maqsad va vazifasi;
4. O'quvchilarning o'quv imkoniyatlari (yoshi, tayyorgarlik darajasi, guruhning ayrim jihatlari, imkoniyatlari);
5. Mavjud sharoit va o'quv ta'minoti darajasi;
6. O'qituvchining imkoniyatlari (tajribasi, tayyorgarlik darajasi, o'quv jarayonidagi turli vaziyatlarga bilim tayyorligi)

O'qitishning amalda qulay metodlarini qanday tanlab olish mumkin?

Rasmiy nuqtai nazardan olib qaralganda aytarlik bu qiyin vazifadek tuyulmaydi. Turli sharoitlarda qo'llaniladigan bir qancha o'quv metodlari mavjud.

Ammo turli sharoitlardan tashqari haqiqiy jarayonda har doim o'z ta'sir kuchiga ega bo'lgan tasodifiy (noma'lum) vaziyatlar mavjudki, oldindan ularning oqibatini ko'ra olish mumkin emas. O'qituvchi bunday vaziyatlarga tayyor bo'lishi zarur. O'qitishda samarali metodlar tanlash uchun bunday vazitlardan kelib chiqishi mumkin bo'lgan oqibatlarni hisobga olish muhimdir. Masalan, "Oila" mavzusida rolli o'yin tashkil etildi. Bunda o'qituvchi o'quvchilarning oilalari haqida oz bo'lsa ham ma'lumotga ega bo'lishi va dars jarayonida bo'ladigan muammoli vaziyatlarda o'quvchilar shaxsiga salbiy ta'sir etish holatining oldini olishi lozim. Ya'ni, otasiz o'sayotgan bolaga ota rolini bermaslik, aksincha unga ekspert yoki kuzatuvchi rolini topshirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'qitish-o'qish metodini tanlashda o'qitish turlari bilan bog'liqlik mavjud. O'qitish turlarining tasnifi quyida aks ettirilgan:

**Loyihali-** o'qituvchi yoki o'qituvchi va o'quvchilar bilan birga ishlab chiqilgan, algoritmlangan, ketma-ketlikda kechadigan jarayon. Bunda o'qituvchi boshqaruvchi vazifasida.

**Evristik-** (evrika lotincha- "heurisko" topaman, ma'nosini anglatadi) o'qituvchi o'zi tomonidan berilgan vazifaga aniq yechim qo'ymaydi, chunki o'quvchilar qo'yilgan muammoni o'z fikrlash doiralaridan kelib chiqib yechadilar. Bunda yangi kashfiyotlar, yechimlar yoki g'oyalar kelib chiqishi kutiladi va ko'pincha o'qituvchi ekspert vazifasida.

**Muammoli-** o'qituvchi tomonidan muammo beriladi va aniq maqsad qo'yiladi. O'quvchilar bu muammoni o'zlari hal qiladilar, lekin o'qituvchi ularni maqsad sari yetaklovchi vazifasini bajaradi va bu jarayonda o'qituvchi fasilitator vazifasida bo'ladi.

**Kreativ** (lotincha- "creatio" yaratish, ijod etish ma'nosini anglatadi)- o'quvchida ijodkorlikni va tadqiqotchilikni shakllantirishga qaratilgan jarayon bo'lib o'qituvchi bunda yordamchi va maslahatchi vazifasida bo'ladi.

**Axborot kommunikatsiya texnologiyalar** -mavzuga mos turli jadvallarni, kinofilmlarni, suratlarni, va h.z.larni turli axborot kommunikatsiya texnologiyalari yordamida darsni tashkil etish. Bunda o'qituvchi tashkilotchi va ma'lumotni yetkazib beruvchi vazifasini bajaradi.

**O'yinli (ta'limiy)-** o'qituvchi mashg'ulot mavzusiga qarab turli o'yinli metodlardan foydalanib darsni tashkil etadi. Bunda o'qituvchi kuzatuvchi vazifasini bajaradi.

O'qitish turlaridan tashqari hozirgi kunda darslarda olib borilayotgan ta'lim berishning quyidagi turlarini birma- bir ko'rib chiqsak. Bular:

**Ekstrafaol (tashqaridan)** - bunda o'quvchi bilimni asosan o'qituvchining so'zidan, beradigan ma'lumotidan va kitobdan oladi. Bunday turdag'i ta'lim jarayonida o'zaro hamkorlik kuzatilmaydi. O'quvchida darsga nisbatan qiziqishi, motivatsiyasi bo'lmaydi.

**Faol (ichki)** - bunda o'quvchi ijodiy ish, uy vazifalarini mustaqil bajaradi, mustaqil mutolaa qiladi, bilim oladi. Quyidagi jarayonda o'quvchini mustaqil ta'lim olish jarayoni kuzatiladi. O'qituvchi bilan hamkorlikning sust ko'rinishi yuzaga keladi.

**Introfaol (tashqariga)** - o'qitishning quyidagicha turida asosan o'quvchilarda "Mening fikrim", "Men kimnidir o'qitishim mumkin" tarzidagi vaziyatlar kuzatiladi, ya'ni o'quvchilar yordamida o'qitish. Bunda o'qituvchi ekspertga, kuzatuvchiga ayrim vaqtarda o'quvchiga aylanadi.

**Interfaol (o'zaro)-** bunda, o'qituvchi o'quvchilar bilan va o'quvchilar o'zaro birgalikda turli vaziyatlardan hamkorlikda chiqadilar va muammoni birgalikda hal etadilar. Quyidagi jarayonda o'quvchi va o'qituvchi, qolaversa o'quvchilar orasida o'zaro hamkorlik kuzatiladi.

Interfaol so'zi (rus tilida "interaktiv") ingiliz tilidan olingan bo'lib, ("inter" o'zaro - "akt" faol) - jarayon, harakat ma'nosini bildiradi. O'zaro faol jarayonda o'qituvchi-o'quvchi, o'quvchi-o'quvchi orasidagi hamkorlikda va

faolligida kechadigan faoliyat kuzatiladi. Interfaol usullardan foydalanilgan mashg'ulotlarda o'quvchi ma'lum darajada o'qituvchiga, guruh esa hamkorlik birlashmasiga aylanadi.

Pedagogik jarayonning quyidagi tashkiliy tarkiblarining barchasi maqsadga muvofiqdir. Tashqaridan, ichki va tashqariga kechadigan jarayonlar bir interfaol usuldan foydalaniladigan jarayonda kechishi mumkinligi isbotlangan. Shunga ko'ra, interfaol usulda tashkil qilinadigan darslarning samarasini yuqoridir.

Mashg'ulotlar vaqtida o'quvchilar orasida, shuningdek, o'quvchilar va o'qituvchilar o'tasida o'zaro munosabatlarning yuqori darajasi kuzatilsa, biz bunday o'qitish va ta'limotni interfaol deb atadik.

Bundan o'zaro munosabat odatda u yoki bu muammoni qay tarzda xal etish va taklif etilgan qaror qay darajada qabul qilinishi to'g'risida muzokaralar shaklida o'tadi.

Interfaol usullar masalalar va o'zaro munosabatlar turlarining keng qatlamlarini o'z ichiga oladi. Biroq usulning yo'llari qanday bo'lmasin, o'quvchilarning o'z hayot tajribasi asosiy ta'limiy manba bo'lib hisoblanadi. O'qitish jarayonida o'quvchilar quyidagilar bilan o'zaro munosabatda bo'ladilar:

1. O'qituvchi bilan (ya'ni o'quvchi o'qituvchi savoliga javob berayotganda).
2. Taklif qilingan kishilar bilan (sinf o'quvchilari biron bir tashkilotga yoki kishilarning yoniga borishi ham mumkin).
3. Boshqa o'quvchilar bilan (juftliklarga bo'linib ishlash davomida).
4. Kichik guruhlari bilan (3-5 o'quvchi).
5. O'quvchilarning katta guruhlari bilan (rollarga bo'linib o'ynash, debatlar, munozaralar va hokazo).
6. O'quvchilarning guruhlari va aholi bilan (tadqiqot olib borayotgan guruh).
7. Ba'zi bir texnika turlari bilan (masalan kompyuterlar).

O'quvchilarning miqdoriy tarkibi ta'limning yoki o'zaro munosabatning sifatini belgilamaydi. "O'zaro munosabat" usulining muxum hususiyati uning **KASHF ETISH JARAYONI** ekanligida bo'lib, bu jarayon davomida o'quvchilar bir-birlari bilan o'zaro munosabat orqali bilimlarni mustaqil egallash ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

Ayrim o'quvchilarning fikricha, interfaol usullardan foydalanishning asosiy sababi ularning "qiziqarli" ekanlididir. Bu -yanglish fikr. Xohlagan mashg'ulotning maqsadi shunchaki qiziqish uyg'otishdan ko'ra ancha uzoqni ko'zlaydi. Interfaol usulni tanlash sababi shundan iborat bo'ladiki, u biron narsani o'qitishning eng samarali yo'lini anglatishi zarur. Agar o'quvchilarda bilim, malaka va ko'nikmalar hosil qilish zarur bo'lsa (masalan, o'zbek tilida gaplashish) unda eng yaxshisi interfaol usuldan foydalanish afzaldir.

Amalda usullarni qo'llash, bizning tushuntirishlarimizdan ayon bo'lishiga ko'ra, ancha murakkab ish sanaladi, chunki turli usullarda o'zaro

munosabatlarning har xil shakllari qo'llanadi, o'zaro munosabatlarning har xil shakllari esa o'quv jarayonining turli tomonlari uchun foydalidir. Masalan, til amaliyoti uchun sizga hammadan ko'ra o'zaro munosabatlar yuqori kechadigan jarayonni yuzaga keltiradigan usullar kerak bo'ladi.

Bu borada interfaolning quydagi usullarini sanab o'tish mumkin:

- **Aqliy xujum;**
- **Debatlar;**
- **Rolli o'yinlar;**
- **Ishbilarmonlar o'yini;**
- **Refleksiya;**
- **Namoyish yoki ximoya (prezintatsiya);**
- **Videoanaliz;**
- **Videotrening;**
- **"Case study" (papkani o'rganish)**
- **Intervyu** kabi metodlar.

### **DARSDAN TASHQARI MUTOLAA**

O'zbek tilini o'rganish sinfdagi mashg'ulotlar bilangina tugamasligi kerak. O'qituvchilar, imkon qadar, sinfdan tashqari, o'quvchilarning bo'sh vaqtleri hisobiga o'lib o'zbek adabiy merosini yaqindan tanishish uchun adabiy uchrashuvlar, drama to'garaklarni tashkil qilish lozim. Sinfdan tashqari o'qishni uyushtirishda o'qituvchi tashabbuskor bo'lmoq'i, o'quvchilarning yoshiga munosib yangi innovatsion usullar yordamida o'zbek tilini o'rgatish va o'zbek adabiy asarlar bilan tanishishni bolalarga tavsiya etishni unutmasligi darkor. Sinfdan tashqari o'qilgan yangi asarlar o'quvchilarni ijodkorlikka undaydi, bugungi voqyelik tufayli tug'ilgan hayotiy savollarga javob topishga o'rgatadi. O'zbek tili ta'limida sinfdan tashqari o'qish jarayonida bolalarda o'zbek tilini o'rganishga qiziqtirish, o'zbek tilida mustaqil so'zlashish ko'nikmalari shakllantirish, ularda vatanparvarlik ruhi shakllangan shaxslar bo'lishiga erishilishda muhim hisoblanadi.

Dastur o'rta mактабда o'zbek tili o'qitishning dars shaklidan tashqari fakultativ mashg'ulotlar, adabiy kechalar, adabiy bahslar, ijodi uchrashuvlar, to'garak mashg'ulotlari, adabiy quroq (montaj)lar, adabiy ko'rgazmalar, adabiy sayohatlar, kitobxonlar anjumani singari ish turlaridan ham foydalanish mumkinligini ko'zda tutadi.

Xullas, ushbu dasturda o'zbek tilida mustaqil fikrini bayon eta oladigan, o'zbek tilida nutqiy me'yorlarni anglaydigan va u orqali vatanparvarlik ruhi shakllangan shaxslar uchun zarur bo'lgan metodik tadbirlar yig'masi taqdim etilgan.

## 6- SINF

### O‘zbekistonga xush kelibsiz!

#### Toshkent-Samarqand (Tarixiy obida)

o‘tgan zamonda takrorlangan, odatiy bo‘lgan ish-harakatlarni hozirgi zamondagi vaziyat bilan solishtira oladi. Sifat va ravishlarning qiyosiy (uzunroq, balandroq singari) va orttirma darajalarini (eng uzun, eng baland singari) ishlata oladibirgalik nisbatini ishlata oladi (borishgan, kelishgan, o‘qishgan va h.z.)

Sayohatlar bilan bog‘liq fe’llar va otlarni ishlata oladi

O‘z darajasiga mos matnni (voqeaband yoki faktologik matnlar) o‘qiganda undagi detallarni tushunadi (kim? nima? qachon? qayerda? nima uchun? singari so‘roqlarga javob topa oladi)

Qisqa hikoya va ertaklar yoza oladi, borgan joylarini tasvirlay oladi. Joy, bino, inshoot, qurilmalar tasvirini yoza oladi

21 s

#### Qani ketdik! (transport)

#### Kamarlarni taqing!

Kelasi zamon fe’llarini (hozirgi-kelasi zamon) ishlata oladi. Daraja ravishlarini (juda, singari) ishlata oladi.

Transport bilan bog‘liq fe’llar va otlarni ishlata oladi

O‘z darajasiga mos matnni (voqeaband yoki faktologik matnlar) o‘qiganda undagi shaxslar, hayvonlar, predmetlar, bino va inshootlar tasvirini tushunadi.

Qurilmalar tasvirini yoza oladi, qurilmalarni tasvirlay oladi.

#### Yo‘l bering

Majhul nisbatni ishlata oladi (kamarlar taqiladi, yo‘l chetidan yuriladi). Payt ergash gaplarni ishlata oladi.

Transport bilan bog‘liq fe’llar va otlarni ishlata oladi.

O‘rganilgan vaziyatlar doirasida o‘zgalarning o‘ziga qaratilgan nutqini tushunadi.

Guvohi bo‘lgan voqealarni tasvirlay oladi.

30 s

#### Texnopark

## Innovatsion texnologiyalar

Kelasi zamon fe'llarini (kelasi zamon maqsad fe'li). Texnik qurilmalar bilan bog'liq otlarni ishlata oladi

O'z darajasiga mos matnni (voqeaband yoki faktologik matnlar, kundalik vaziyatlar aks etgan dialoglar) eshitganda uning asosiy g'oyasini tushunadi.

Qisqa faktologik matn yoza oladi

Biror narsaning (bino, inshootning) qanday, nimadan qilinishini (qilinganini) tasvirlay oladi (bu ko'prik toshlardan qurilgan, kitob daraxtdan qilingan singari)

## Lekin bu fakt

O'tgan zamon sifatdoshini ishlata oladi (borgan, kelgan, o'qigan va h.z.), predmetlar bilan bog'liq sifatlarni ishlata oladi.

O'z darajasiga mos faktologik matnlarda biron narsaning qanday tuzilganligini (qismlari, qismlarining vazifalari) tushunadi.

Ko'rgan texnika buyumlarni va bo'lgan voqealariga nisbatan munosabat bildira oladi (Bu juda qulay singari).

## Ogoh bo'ling!

"kerak", "zarur" modal so'zlarini ishlata oladi (kerak/zarur, kerak/zarur edi, kerak /zarur bo'ladi).

Texnik qurilmalar bilan bog'liq otlarni ishlata oladi. O'z darajasiga mos matnni (voqeaband yoki faktologik matnlar, kundalik vaziyatlar aks etgan dialoglar) eshitganda undagi detallarni tushunadi (kim? nima? qachon? qayerda? nima uchun? singari so'roqlarga javob topa oladi), guvohi bo'lgan voqealarini tasvirlay oladi.

## Loyihा

Kelasi zamon fe'llarini (kelasi zamon maqsad fe'li, hozirgi-kelasi zamon) ishlata oladi.

Transport va texnika bilan bog'liq fe'llar va otlarni ishlata oladi.

O'z darajasiga mos matnni (voqeaband yoki faktologik matnlar) o'qiganda undagi voqeа-hodisalar ketma-ketligini tushunadi.

Qisqa faktologik matn yoza oladi, ko'rgan joylari, guvohi bo'lgan voqealariga nisbatan munosabat bildira oladi (Bu juda chiroyli joy singari).

## 24 s Boriga baraka

### 1+1=3 Aksiya

Kirish birikmalarini (xo'sh, yaxshi, yo'g'-e singari) ishlata oladi. Predmetlar, joylar bilan bog'liq sifatlarni ishlata oladi.

Reklama e'lolarini o'qiganda tushunadi. O'z darajasiga mos matnni (voqeaband yoki faktologik matnlar, kundalik vaziyatlar aks etgan dialoglar) eshitganda uning asosiy g'oyasini tushunadi.

Qisqa reklama matnlari yoza oladi. Zaruratni (turli zamonlarda) ifodalay oladi.

### “Kim oshdi” savdosi

O'zlashtirma gaplarni ishlata oladi. Predmetlar, joylar bilan bog'liq sifatlarni ishlata oladi.

O'z darajasiga mos matnni (voqeaband yoki faktologik matnlar) o'qiganda unda ayrim ochiq aytilmagan fikrlarni ilg'ay oladi. Reklama e'lolarini eshitganda tushunadi. O'tgan zamonda takrorlangan, odatiy bo'lgan ish-harakatlar haqida gapira oladi (yakshanba kunlari buvimnikiga borardik singari).

### Sotilgan mol qaytib olinmaydi

Shart ergash gaplarni ishlata oladi. Predmetlar, joylar bilan bog'liq sifatlarni ishlata oladi.

O'z darajasiga mos matnni (voqeaband yoki faktologik matnlar, kundalik vaziyatlar aks etgan dialoglar) eshitganda undagi voqea-hodisalar ketma-ketligini tushunadi.

Norasmiy vaziyatlarda xat (e-mail) yoza oladi va xatlarga javob qaytara oladi.